



Nargiza RAHMATULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail. rakhmatullayevan@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) G'.X.Do'stmurodov taqrizi asosida

ONA TILI DARSLIKLARIDA MAVJUD TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI BA'ZI TOPSHIRIQLAR TAHLILIGA DOIR

Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan ona tili darsliklarida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarning turlari, ularning metodik asoslari va o'quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, darsliklarda mavjud topshiriqlarning afzalliklari hamda takomillashtirish yo'nalishlari haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, nutqiy faoliyat, eshituv materiali, o'quv topshiriqlari, kompetensiya, integratsiya.

К АНАЛИЗУ НЕКОТОРЫХ ЗАДАНИЙ, РАЗВИВАЮЩИХ НАВЫК ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ, ИМЕЮЩИХСЯ В УЧЕБНИКАХ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В данной статье анализируются виды заданий, направленных на формирование умения слушать и понимать в учебниках родного языка для начальных классов, их методические основы и роль в развитии речевой деятельности учащихся. Также в учебниках даются научные выводы о достоинствах имеющихся заданий, а также о направлениях их совершенствования.

Ключевые слова: понимание на слух, речевая деятельность, слуховой материал, учебные задания, компетентность, интеграция.

TO ANALYZE SOME TASKS THAT DEVELOP LISTENING COMPREHENSION SKILLS AVAILABLE IN TEXTBOOKS ON THE NATIVE LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the types of tasks aimed at developing the ability to listen and understand in textbooks of the native language for primary school students, their methodological foundations and their role in the development of speech activity of students. The textbooks also provide scientific conclusions about the advantages of existing assignments, as well as directions for their improvement.

Keywords: listening comprehension, speech activity, auditory material, learning tasks, competence, integration.

Kirish. Jamiyatning rivojlanib borishi fan va texnika, talim-ona tilining rivojlanib tarqiy topishi bilan bevosita bog'liqdir. Dastlabki ta'lim va ona tili jarayonlarining quyi bosqichlarida o'quvchiga ta'lim va ona tili berish jarayonlari va topshiriq, darsliklari juda sodda talablar va jarayonlar shaklida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi fan-texnika rivojlangan zamonga kelib ta'lim jarayoni murakkablashib bormoqda, chunki bugungi kun o'quvchilarini qiziqitirish va ularga samarali ta'lim jarayonini tashkil etish asosiy muammolardan biri hisoblanmoqda. Shuning uchun ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan hamnafas rivojlanib borayotgan o'qitish tizimi jarayonlari ko'lam ham kengayib bormoqda. Maktab darsliklarda esa tabiiy ravishda yuqoridagi holat o'z aksini topmoqda. Bu holatdan ona tili darsliklari ham holi emas. Dastlabki ona tili darsliklarimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'proq grammatika va o'quvchining yozma savodxonligiga e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy o'qitish usullari kirib kela boshlagach darsliklarimiz mazmuni ham yangilanib bordi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida ona tililash va

rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"[1]. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarda boshlang'ich sinfdan tinglab tushunish, o'qib tushunish ko'nikmalari rivojlantirishi zarur.

Tinglash asosan, oddiy jarayon sifatida qaraladi, lekin u biz o'ylaydigan darajada oddiy emas. O'zbek tilini o'qitishda dastlab ushbu ko'nikma qisman e'tibordan chetda qoldi. "Bunday muhim ko'nikma til o'rganuvchilar uchun juda zarur bo'lib, u nisbiy muammolardan qochish, shuningdek, tinglashda ularning kuchli va zaif tomonlarini tan olish va tinglashni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berish uchun mashaqqatli mehnatni talab qiladigan ko'nikmalardan biridir", deydi ingliz olimi Douvns. Tinglash, so'z sifatida, "biror narsani eshitishga harakat qilish; diqqat qilish yoki e'tibor berish" deb ta'riflanadi [2]. Ushbu ta'rifga asoslanib, tinglash va eshitish ikki xil jarayondir degan xulosaga kelish mumkin. Tinglash juda muhim va u eshitishdan ko'ra ko'proq harakat talab qiladi. Bu odatda passiv mahorat sifatida qaraladi, lekin aslida u faol va dinamik jarayondir. [3]. Uni dinamik qiladigan narsa shundaki, muloqotda tinglash nafaqat aytilayotgan narsani tushunish uchun, balki fikr bildirish uchun ham muhimdir. Ingliz tadqiqotchilarining tadqiqotlariga asoslanib, kattalar kun davomida ko'p vaqtlarini muloqotda bo'lishini, bu ko'rsatkich o'rtacha 70 foiz kishilar muloqotda bo'lishini va 30 foizi esa muloqotdan chetda bo'lishini ko'rsatdi. Tinglash, shaxs muloqot qilmasa, mavjud bo'ladi, bu til ko'nikmalari

doirasining deyarli o'rtacha 50% ni tashkil qiladi. Binobarin, quyidagi diagrammada til ko'nikmalari solishtirilgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Shu ma'noda topshiriq va mashqlarda ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, topshiriq va mashqlar ko'lami kengaydi. Bugungi kun darsliklari aynan ta'lim mazmunidan kelib chiqib o'quvchini hayotning barcha sohasida erkin fikrlaydigan, har qanday vaziyatda yo'l topadigan va o'z fikrini yozma va og'zaki tarzda ravon ifoda etoladigan nutqiy rivojlangan insonni voyaga yetkazish hisoblanadi. Ona tili darsliklari ham xuddi shu mazmunga ko'ra yangicha tus oldi. O'quvchida o'zgalarning fikrini hurmat qilish va tinglashga, bevosita tinglab orqali to'g'ri fikr berishga yordam beruvchi tinglab tushunish ko'nikmasiga ham alohida e'tibor berilgan. 4-sinf

Tinglab tushunish topshiriqlari o'z mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Topshiriq turi	Maqsadi	Misol (3-4-sinf darsligidan)	Tahlil
1. Axborotni aniqlash topshiriqlari	Eshirilgan matndan fakt, ism-sharif, joy nomlarini eslab qolish	"O'qituvchi matnni o'qib beradi. O'quvchilar matndan shahar nomlarini sanab o'tadilar."	Bu turdagi topshiriq o'quvchining diqqatini jamlash va axborotni selektiv qabul qilish malakasini rivojlantiradi.
2. Asosiy mazmuni aniqlash topshiriqlari	Matnning bosh g'oyasini tushunish, umumlashtirish	"Matnni tinglang va uning nima haqida ekanligini bitta gap bilan ayting."	Ushbu topshiriq o'quvchilarda mantiqiy eshitish, tahliliy fikrlash hamda fikrni umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.
3. Eshirilgan matn bo'yicha savol-javob	Matn mazmunini qayta ishlash, faol tinglovchi sifatida ishtirok etish	"Matnda qahramon nima uchun shunday yo'l tutdi?"	Bu topshiriq og'zaki nutqni faollashtiradi, o'quvchini tushunganini so'z bilan ifodalashga o'rgatadi.
4. Kutilmagan yakuni matnlar asosidagi topshiriqlar	Matn davomida taxmin qilish, natijani oldindan aytish	"Hikoya oxirida nima bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?"	O'quvchilarning ijodiy va taxminiy fikrlashini, emotsional idrokni rivojlantiradi.
5. Eshirilgan matn asosida rasm chizish yoki jadval to'ldirish	Matnni vizual idrok bilan bog'lash	"Matnda aytilgan voqealar ketma-ketligini rasmlar orqali tasvirlang."	Bu topshiriq multimodal idrokni kuchaytiradi va tinglab eslab qolishni samarali qiladi.

Amaliy kuzatishlar

Masalan, 3-sinf Ona tili darsligining 57-mashqida quyidagi topshiriq keltirilgan:

"O'qituvchi matnni ifodali o'qib beradi. Tinglang va matn qahramonining qanday fazilatlarini aniqlang."

Bu topshiriq tinglovchi o'quvchidan nafaqat matnni eshitish, balki unda aks etgan axloqiy xulosani idrok etishni ham talab qiladi. Shu orqali o'quvchida emotsional, axloqiy va ma'naviy tushunish darajasi rivojlanadi.

Ona tili darsligidagi tinglab tushunish topshiriqlari:

o'quvchilarda eshitish diqqatini, mantiqiy idrokni, mazmuniy tahlilni rivojlantiradi;

og'zaki nutq, fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, ba'zi darsliklarda tinglab tushunish topshiriqlari qisqa yoki passiv xarakterga ega bo'lib, ularni ko'proq interaktiv, ko'p bosqichli shakllarda tashkil etish zarur.

2-sinf "Ona tili" darsligida tinglab tushunish topshiriqlarining tahlili

2-sinfda tinglab tushunish topshiriqlari asosan qisqa matnlarni diqqat bilan tinglash, asosiy fikrni aniqlash va savollarga javob berish shaklida tashkil etilgan. Bu bosqichda bolalarda tovushni farqlash, so'z va gaplarni eslab qolish, og'zaki matnni idrok etish malakalari shakllanadi.

Topshiriq namunasi	Maqsadi	Tahlil
"Matnni tinglang va unda kim haqida so'z yuritilganini ayting."	Eshirilgan matn mazmunini tushunish	Bolada eshitish diqqatini rivojlantiradi, asosiy fikrni ajratish ko'nikmasi shakllanadi.
"Matndan sizga yoqqan joyni ayting."	Shaxsiy munosabat bildirish	O'quvchi matnni faqat eshitmay, unga emotsional javob beradi.
"O'qituvchi she'rni o'qiydi. Qaysi so'zlar takrorlanmoqda?"	Fonetik e'tibor va so'z eslab qolish	Takror orqali tovush idrok, fonematik eshitish mustahkamlanadi.

2-sinf darsligidagi tinglab tushunish topshiriqlari o'quvchilarda diqqat, eshituv xotirasi va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ularni ko'rgazmali yoki o'yin shaklidagi topshiriqlar bilan boyitish zarur.

3-sinf "Ona tili" darsligida tinglab tushunish topshiriqlari tahlili

Topshiriq namunasi	Maqsadi	Tahlil
"Matnni tinglang. Uning asosiy g'oyasini bitta gap bilan ifoda eting."	Umumlashtirish, asosiy mazmuni tushunish	O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni faollashtiradi.
"Matndan qahramonning qanday fazilatlarini bilib oldingiz?"	Axloqiy tushunishni rivojlantirish	O'quvchi eshitilgan matndan shaxsiy xulosa chiqaradi.
"Matnni tinglang va voqealar ketma-ketligini sanang."	Strukturaviy idrokni shakllantirish	Bolalar voqealarni eshitish asosida ketma-ket joylashtirishni o'rganadi.

3-sinfda tinglab tushunish topshiriqlari mazmuni tahlil qilish, mantiqiy ketma-ketlikni tushunish va nutqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ammo ularni baholash mezonlari aniq belgilanmagan, shuning uchun reytingli yoki ball tizimi joriy etish foydali bo'ladi.

Topshiriq namunasi	Maqsadi	Tahlil
"Matnni tinglang. Undan qanday saboq olish"	Ma'naviy xulosa	O'quvchi eshitilgan matndan axloqiy g'oya ajratadi.

Umumiy tavsif

3-sinfda matnlar hajman kattalashadi, mazmuniy murakkablik ortadi. O'quvchilardan faqat eshitish emas, balki matnni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish talab etiladi.

4-sinfda tinglab tushunish topshiriqlari o'quvchilarda mustaqil tahlil, shaxsiy munosabat bildirish, g'oyaviy xulosaga kelish ko'nikmalarini shakllantiradi. Matnlar ko'proq badiiy va axloqiy yo'nalishda bo'ladi.

mumkin?"	chiqarish	
"Matnda qahramon qanday qaror qabul qildi? Siz bo'lsangiz nima qilardingiz?"	Mustaqil fikrlashni rag'batlantirish	O'quvchi eshitgan voqeani hayotiy tajribasi bilan solishtiradi.
"Matn asosida kichik og'zaki hikoya tuzing."	Og'zaki nutqni rivojlantirish	Tinglab tushunish natijasida o'quvchi matnni qayta yaratish orqali nutqiy faol bo'ladi.

4-sinf darsligida tinglab tushunish topshiriqlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ifodali nutq va ma'naviy idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, topshiriqlarni audio yozuvlar, video lavhalar, dramatizatsiya usullari bilan boyitish ularning samaradorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Sinf	Asosiy yo'nalish	O'sish dinamikasi
2-sinf	Diqqat, eshituv xotirasi, so'zlarni farqlash	Boshlang'ich bosqich, asosiy malaka shakllanadi
3-sinf	Mantiqiy idrok, tahliliy fikrlash	Mazmuniy tahlil bosqichi
4-sinf	Tanqidiy fikrlash, ma'naviy xulosa chiqarish	Mustaqil nutqiy faoliyat bosqichi

Umuman, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish – ona tili ta'limining muhim yo'nalishidir. Darsliklarda mavjud topshiriqlar o'quvchilarda eshituv, diqqat, mantiqiy tahlil va og'zaki nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu topshiriqlarni zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va loyihaviy yondashuvlar asosida yangilash zarur. Natijada o'quvchilar o'z fikrini tinglab anglash, mazmunni tahlil qilish va nutqiy ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Takliflar:

1. Tinglab tushunish mashg'ulotlarini o'qish, yozish va og'zaki nutq bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning til kompetensiyasini kompleks shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. Darslik va qo'llanmalardagi tinglab tushunish topshiriqlarini zamonaviy nutq namunalariga, turli yoshdagi o'quvchilarga moslashtirish zarur.

3. Audio matnlar, videoroliklar, podkastlar va interfaol dasturlar yordamida o'quvchilarning eshituv faoliyatini rag'batlantirish samarali natija beradi.

4. Tinglab tushunish jarayonini faqat to'g'ri javob asosida emas, balki o'quvchining matndan olgan mazmuniy xulosasi va tahliliy fikrlash darajasi bo'yicha baholash lozim.

5. O'qituvchilar uchun "tinglab tushunish texnologiyalari" bo'yicha metodik seminarlar tashkil etish, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash muhim.

6. O'quvchilarni tinglagan matn asosida o'z hikoya yoki fikrlarini aytishga o'rgatish orqali ijodkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
2. Downs, L. (2008). Listening skills training. United States: ASTD Press.
3. Steinberg, S. (2007). An Introduction to Communication Studies. Cape Town, South Africa: Juta & Co.
4. www.skillsyouneed.com.
5. Baynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II qism. / Baynazarova D. D., M.E. Toirova - Tashkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.
6. D. Baynazarova Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. / D. Baynazarova - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.